

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

SHAXS TARBIYASIDA OILANING O'RNI VA VAZIFALARI

Bosimova Mahliyo Dilshod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'inch ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotasiya:

Mazkur maqolada bola shaxsi tarbiyasidagi vazifalari, unda oilaning tutgan o'rni, hamda oilaning huquq va majburiyatlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, axloq, huquq, majburiyat, ota-ona, farzand.

Oila haqida so'z yuritilganda ko'z o'ngimizda ota-ona va farzandlar birgalikda baxtli hayot kechiradigan shaxslar jamoasi gavdalanadi. Oila bu er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi hisoblanadi. Oila insonning ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar kamol topadigan va sog'lom e'tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargohdir.

Oila jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yo'qki o'zining rivojlanish tarixida oila va uning atrofida yuzaga keladigan muammolarga e'tibor qaratmagan bo'lsa. Har qanday davlat ham o'zining rivojlanish bosqichi asosi qilib oilani ko'rsatadi. Chunki oilada xalq, millat va jamiyat uchun barkamol, yetuk, o'z dunyoqarashiga ega, mustaqil fikrlaydigan, davlat rivojlanishida o'z hissasini qo'sha oladigan shaxslar voyaga yetkaziladi. Bunda oilada farzand tarbiyasi asosiy o'rin tutadi. Shubhasiz, oilaning eng muhim vazifalaridan biri tarbiya hisoblanadi.

Oila davlatning asosiy bo'g'ini hisoblanib, muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarini aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur". Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning poydevori asosan oilada qo'yiladi. Tarbiya jarayonida bolaning ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi kerak. Bunga erishish uchun bolaning ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa bola tarbiyasida maqsadga erishish qiyinlashishi mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Oilada tarbiya jarayoniga, albatta, ota-ona rahbarlik qiladi. Ular bolaning davomiy faoliyatini belgilaydi, ularning bu jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Ingliz olimi Herbert Spencer "Tarbiya-bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning amaliy jarayonlarini o'z ichiga olishi kerak",-deb yozadi. O'zining "Butun shaxsni rivojlantirish" kitobida tarbiyaning aqliy, axloqiy va jismoniy turlarini ko'rasatib o'tadi. Ularning eng asosiysi va muhimi axloqiy tarbiya deb ta'kidlaydi. Oilada bola tarbiyasi deganda asosan ota-ona, oiladagi katta kishilar buva-buvilar, aka-opalar va shu kabilar tomonidan bolalarning to'g'ri odob-axloq qoidalari asosida tarbiyalinishini tushunimiz mumkin. Oila tarbiyasi ko'p qirrali bo'lib, uning bir-biri bilan bog'liq tarkibiy qismlari mavjud. Mazkuz tarkibiy qismlar yaxlit tarzda bola shaxsida shakllantiriladi. Ularni quyidagicha tasnif etish mumkin: o'

-oilada aqliy tarbiya. Oilada aqliy tarbiyani shakllantirishda bolalarning dunyoqarashi va tafakkurini rivojlantirish, unda aqliy mehnat madaniyatini shakllantirish tushuniladi. Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yishda bolalarni ilm-fan, texnika, texnologiyalar borasida olib borilayotgan ishlar va qo'lga kiritilgan yutuqlardan, yangiliklar, kashfiyotlardan xabardor etish, ularga bilim berish, tafakkurini oshirish, dunyoqarashini shakllantirishdan iboratdir. Yuzaga kelgan muammolarga o'z tafakkuri va dunyoqarashi orqali javob izlashi, ularga yechim topishini o'rgatishdan iborat;

-oilada axloqiy tarbiya. Oilada axloqiy tarbiyani shakllantirishda kundalik turmush tarzimizda, kunlik davomiy faoliyatimizda bola shaxsiga yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan adolatsizlik, insonparvarlik, vatanga muhabbat uyg'otish kabi jihatlarni shakllantirishdan iborat. Axloqiy tarbiya oilada bolalarni qolaversa barcha odamlarni vijdonli, nomusli, mehnatsevar, adolatli, vatanparvar bo'lishga o'rgatishni o'z ichiga oladi;

-oilada jismoniy tarbiya. Oilada jismoniy tarbiyani vazifasi bolalarda barcha tana a'zolarining sog'lom o'sishini ta'minlash, ularni aqliy va jismoniy mehnatga tayyorlashdan iborat;

-oilada ekologik tarbiya. Bolalarda atrof muhitni, tabiatni sevish, o'z shahri, qishlog'i, mahallasi, ko'chasi, o'zining bilim maskani, uyidagi o'simlik va hayvonot dunyosini e'zozlashga, ko'kalamzorlashtirishga o'rgatishdan iborat.

-oilada iqtisodiy tarbiya. Bolalarga tejamkorlik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, hisob-kitob va shu kabilarni ongli tarzda fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishga iboratdir. Abdulla Avloniy ta'rifiga ko'ra " Iqtisod deb pul va mol kabi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ne'matlarning qadrini bilmakni aytiladur. Pul-u davlati ko'p bo'lgan inson boy emas, balki iqtisodchi bo'lgan inson boydir". Darhaqiqat, bolada iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda tejamkorlikni, ishni rejali tarzda olib borishni o'rgatish kerak; -oilada mehnat tarbiyasi. Bolalarga ko'proq mehnat ta'limi haqida ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan tanishtirish, ularni hayotga tayyorlashdan iborat. Tarbiyaning bu jarayonida faqat o'z ehtiyoji yo'lida mehnat qilish emas balki, vatan manfaati yo'lida ham mehnat qilishga o'rgatishni o'z ichiga oladi; -oilada huquqiy tarbiya. Bolalarning huquqiy bilimlarini oshirish, qonunlarni yaxshi bilishi, ularga rioya qilishini, o'z huquq va majburiyatlarini anglashi kabi tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

Oilada ta'lim tarbiya tizimli olib borilgan va tarbiyalangan bolagina vatan uchun yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishib chiqishi mumkin. Oilada tarbiya berishda bolalarga maqtov va jazolash usullaridan ham foydalanishimiz kerak. Maqtov va jazo rag'batlantirish usuli hisoblanadi. Bola tarbiyasida maqtovning o'rni muhim hisoblanadi. Maqtov bolaga mativ bo'lib, unda ijobiy xislat va fazilatlarni tarkib toptirishda yordam beradi. Lekin juda ko'p maqtov ham bolada manmanlik tuyg'usini ham keltirib chiqarishi mumkin. Jazolash esa bolaning axloqidan, ishiga munosabatidan, muomalasidan mamnun bo'lmasa, uning axloqini, xulqini tuzatib olish uchun yordam beradi. Maqtov singari jazolash ham bolaning xulq-atvorini yo'lga solib turadi. Lekin ortiq darajada jazolash ham bolada qo'rquv tuyg'usini kuchayishiga va xotirjamsizlikka olib keladi.

Bola tarbiyasida oilada eng katta vazifa va mas'uliyat ota-onaga yuklatiladi. Ma'lumki bu yorug' olamdan hayot bor ekan, demak albatta oila ham bor. Oila bor ekan demak farzand degan ulug' va bebaho ne'mat ham bor. Har qanday ota-ona farzandining baxtini, kamolini o'ylab hamisha orzu-umidlar bilan yashaydi. Farzandining sog'lom, baquvvat, barkamol inson bo'lib yetishishini istaydi. Hozirgi zamonda esa mustaqil va yangicha fikrlaydigan, chuqur bilimga ega bo'lgan, zamon talabiga javob beradigan, intellektual rivojlangan, har tomonlama kamol topgan shaxs sog'lom turmush tarzi qaror topgan va to'g'ri tarbiyaga asoslangan oilada shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy pedagogika. Toshkent. "O'zkitobsavdo nashriyoti" 2020.
2. Umarova M.M. Oila va ma'naviyat, Toshkent, "Fan" nashriyoti. 2006.
3. The elementar of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

4. Jelf Helstead Navigating the new pedagogy.
5. Ollokulova F.U. VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022
6. Ollokulova F.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy pedagogik ahamiyat. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415
7. Ollokulova F.U SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA BORASIDAGI QARASHLARI. PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS <https://doi.org/10.5281/zenodo.7495186>
8. Ollokulova Farzona Umedillayevna. Tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik tavsifi/ Tadqiqotlar jahon ilmiy metodik jurnal/ 6-son 2-to'plam yanvar 2023. 336-339-betlar
9. Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi Factors of Forming the Scientific World View of Primary Class Students. International Journal of Inclusive and Sustainable Education ISSN: 2833-5414 Volume 1 | No 6 | Dec-2022
10. R.D.Norqobilova, S.Xoliyeva. "Eastern Scientists Views on Speech". Web of Scientifical Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, June 2022. 1434- 1437.
11. Umida Muminova Qarshiyevna ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022 IMPORTANT PROBLEMS OF UZBEK ANONYMITY IN THE WORKS OF KASGHARI. Umida Muminova Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education
12. Umida Muminova Qarshiyevna in recognition of the paper publication of the research paper on Central Asian Journal of Social Sciences and History Linguistic Views of Mahmud Kashgari. December, Vol. 3 No. 12 (2022): CAJSSH
13. P.A.Xoliqova For Publication of Paper Entitled THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF USING NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION In Volume 10, Issue 11, Nov., 2022
14. Zaynab Abdunazarova. WAYS AND METHODS OF USING ROLE-PLAYING GAMES IN MOTHER TONGUE CLASSES FOR THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 85–90. 2022/12.

